

URUSH HAQIDAGI ASARLARDA MUALLIF RUHIYATI VA QARASHLARI

Abdurahimova Manzuraxon

*O'qituvchi Farg'ona jamoat salomatligi
tibbiyot instituti, O'zbekiston, Farg'ona*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada urush mavzusidagi asarlarda muallif ruhiyati va qarashlarining badiiy ifodalanishi adabiy hamda filologik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Unda yozuvchi shaxsining ichki kechinmalari, urushga bo'lgan munosabati, insonparvarlik g'oyalari hamda ijtimoiy-falsafiy qarashlari badiiy matn tarkibida qanday aks etishi yoritib berilgan. Shuningdek, asarlarda qo'llanilgan tasviriy vositalar, obrazlar tizimi, til va uslub xususiyatlari orqali muallifning ruhiy holati va dunyoqarashi ochib berilgan. Filologik tahlil asosida badiiy matnning semantik, stilistik va konseptual qatlamlari o'rganilib, muallif pozitsiyasining shakllanishi va ifodalanish mexanizmlari aniqlab berilgan. Natijada, urush haqidagi asarlar orqali ijodkor shaxsiyatining murakkab va ko'p qirrali tabiati ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *urush mavzusi, muallif ruhiyati, badiiy tasvir, ijodkor shaxsiyati, adabiy tahlil, filologik yondashuv, obrazlar tizimi, uslub va til, badiiy matn, dunyoqarash, estetik ideal, ijtimoiy-falsafiy qarashlar.*

Abstact: *This article analyzes the artistic expression of the author's psychology and views in works on the theme of war from literary and philological perspectives. It examines how the writer's inner experiences, attitude toward war, humanistic ideas, and socio-philosophical views are reflected in the structure of the literary text. The study also reveals the author's psychological state and worldview through the system of images, stylistic devices, language, and stylistic features used in the works. Based on philological analysis, the semantic, stylistic, and conceptual layers of the literary text are explored, and the mechanisms of the formation and expression of the author's position are identified. As a result, the complex and multifaceted nature of the creative personality is revealed through works about war.*

Keywords: *war theme, author's psychology, artistic representation, creative personality, literary analysis, philological approach, system of images, language and style, literary text, worldview, aesthetic ideal, socio-philosophical views.*

KIRISH

Urush mavzusi jahon va milliy adabiyotda eng murakkab, ziddiyatli hamda chuqur falsafiy mazmunga ega bo'lgan yo'nalishlardan biri sifatida alohida o'rin tutadi. U nafaqat tarixiy voqealar silsilasini aks ettiradi, balki inson ruhiyatining eng nozik qatlamlarini ochib beruvchi, ijodkorning ichki dunyosini namoyon etuvchi badiiy maydon vazifasini ham bajaradi. Shu bois urush haqidagi asarlarni o'rganishda faqat voqelik tasviri bilan cheklanib qolish yetarli emas, balki unda muallifning ruhiy kechinmalari, estetik qarashlari va hayotga munosabati qanday ifodalanganini aniqlash muhim ilmiy masalalardan biridir.

Adabiyotda urush tasviri ko'pincha ikki qarama-qarshi qutb – vayronkorlik va insoniylik, fojea va umid, yo'qotish va sabr-toqat o'rtasidagi murakkab dialektik munosabatlar asosida quriladi. Ana shu ziddiyatlar fonida muallifning ruhiyati yaqqol namoyon bo'ladi: u ba'zan fojeaviy kechinmalarni chuqur iztirob bilan ifodalaydi, ba'zan esa insoniy qadriyatlarni ulug'lovchi yuksak g'oyalarni ilgari suradi. Natijada badiiy matn oddiy tasvir darajasidan chiqib, ijodkorning ichki olami va dunyoqarashini aks ettiruvchi ko'p qatlamli estetik hodisaga aylanadi.

Filologik nuqtai nazardan qaraganda, muallif ruhiyati va qarashlari matnning turli sathlarida – leksik tanlov, sintaktik qurilish, tasviriy vositalar, obrazlar tizimi va kompozitsion tuzilishda namoyon bo'ladi. Har bir badiiy detal, metafora yoki ramziy obraz muallifning ichki kechinmalari va pozitsiyasini ifodalashga xizmat qiladi. Shu jihatdan urush mavzusidagi asarlar nafaqat adabiy, balki lingvopoetik tahlil uchun ham boy material hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi urush haqidagi asarlarda muallif ruhiyati va qarashlarining badiiy ifodalanish xususiyatlarini aniqlash, ularning matn tuzilishidagi o'rni va funksiyasini adabiy hamda filologik tahlil asosida yoritishdan iborat. Ushbu tadqiqot davomida urush tasvirining faqat tashqi voqelik emas, balki ijodkorning ichki kechinmalari, ma'naviy izlanishlari va estetik idealini aks ettiruvchi murakkab badiiy tizim ekanligi asoslab beriladi.

MAVZUNING O'RGANILGANLIK DARAJASI

Urush mavzusidagi asarlarni tahlil qilishda muallif ruhiyati va qarashlari masalasi markaziy o'rin egallaydi, chunki har qanday badiiy matn, avvalo, ijodkorning ichki dunyosi va individual tajribasining mahsuli hisoblanadi. Yozuvchi urushni qanday ko'radi, uni qanday his etadi va qanday talqin qiladi – bularning barchasi asarning g'oyaviy-badiiy yo'nalishini belgilab beradi. Shu jihatdan urush haqidagi asarlarda voqelik tasviri ko'pincha subyektiv idrok bilan uyg'unlashib, muallifning ruhiy kechinmalarini ochib beruvchi asosiy vositaga aylanadi.

Adabiy tahlil shuni ko'rsatadiki, urush tasviri ko'pincha insoniy fojea, yo'qotish va iztirob bilan bog'liq holda beriladi. Bunday holatlarda muallif ruhiyati asarda keskin drammatizm, ichki ziddiyat va psixologik chuqurlik orqali namoyon bo'ladi. Qahramonlar obrazida aks etgan qo'rquv, umidsizlik, iztirob yoki aksincha, matonat va umid kabi holatlar bevosita muallifning hayotga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Demak, obrazlar tizimi faqat voqealarni tasvirlash vositasi emas, balki muallifning ichki olamini aks ettiruvchi badiiy mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Filologik nuqtai nazardan esa muallif ruhiyati til va uslub orqali yanada aniqroq namoyon bo'ladi. Masalan, keskin, qisqa va parchalanib ketgan gap qurilishlari urushning vahshiyliги va ruhiy tanglikni ifodalasa, keng, tasviriy va emotsional boy jumlar muallifning chuqur kechinmalarini yoritadi. Metafora, epitet, ramz kabi tasviriy vositalar esa urushning nafaqat tashqi manzarasini, balki uning inson ruhiyatiga ta'sirini ochib beradi. Shu tariqa til birliklari muallifning ichki kechinmalarini estetik shaklda ifodalashga xizmat qiladi.

Muallifning tuyg'ular va fikrlarini o'quvchiga yetkazish usullarini, qahramon hissiyotlari va ichki kechinmalarini, imo-ishoralar va fiziognomiya (xarakterni yuz tuzilishiga ko'ra aniqlash) kabi holatlarning talqinini qahramonlar shaxsiyatida tahlil etish lozim. Adabiyotshunos D.Quronov esa "badiiy asardagi qahramon ruhiyatini xatti-harakatlari, gap-so'zlari orqali ochish psixologik tahlilning dramaturgik usuli" ekanligini ta'kidlaydi[1]. Rus olimi A.G.Kovalev izidan borgan olim Cho'lponning "Kecha va Kunduz" asaridagi Zebi obrazini psixologik tahlilning dramaturgik – bilvosita usuli, ya'ni psixofiziologik jihatdan talqin etadi, obrazlarning har bir xatti-harakatlari ruhiy asosini izohlab boradi. Bizning vazifamiz asar qahramonining tashqi (portret) va ichki olam (xarakter)ining mutanosibligi yoki nomutanosibligi, ruhiy kechinmalarini (masalan, shodligi, g'amginligi) qahramon psixologiyasida, tashqi qiyofasida qanday ko'rinishi, bu holat yozuvchi tomonidan qanday mahorat bilan tasvirlanganligini ilmiy jihatdan isbotlashdan iborat. AQSh psixolingvistikasi asoschilaridan biri Charlz Osgudning fikricha, "psixolingvistika nutq orqali muloqot maqsadi, tuzilishi va inson shaxsining mutanosibligini o'rganadi. Bunda xabar yuboruvchi va uni qabul qiluvchi muhim ahamiyatga ega, ya'ni psixolingvistika muloqotning alohida qatnashchilarida yuz beradigan kodlash va kodlarni o'qish jarayoni haqidagi ta'limotdir". Badiiy adabiyotda esa ana shu holat qahramon harakatlari orqali namoyon bo'ladi. Bular – jest va mimika, portret, psixologik tasvir kabi vositalardir. Badiiy asarni qahramonsiz tasavvur qilib bo'lmaganidek, uning ruhiy olamini ham bu vositalardan xoli tasavvur qilib bo'lmaydi.

Nabi Jaloliddinning "Seni yaxshi ko'raman, hayot" hikoyasida ona o'g'liga aroq ichishni taklif qiladi. Bu kabi hodisa, ayniqsa, o'zbeklarda mingtadan bitta bo'lsa, bordir, bo'lmasa, yo'q. Biroq yozuvchining mahorati shundaki, asar davomida kitobxon butunlay boshqacha manzaraga duch keladi:

"Bir kech buvim ovqatdan avval oldinga araq qo'ydi.

–Yaxshi uxlaysan, bolam, ozginaichvol, – dedi.

Hayratda qotib qoldim.

– Bu nima qilganiyiz, buvi! –O'zimni qo'lga olishim kerakligini bilib tursam-da, sir boy bergim kelmasdi.–Endi sizminan o'tirib, araq ichishim qoluvdi!..

Buvim o'zgarganimni, ahvolimdan hijolat bo'la boshlaganimni ham sezmay, nuqul ichishga undaydi:

– Ozginaichgin, bolam! O-zzgina!.."[2].

Ona Afg'on urushi azoblari – dahshatli xotiralar, qo'rqinchli tushlar, ruhiy tushkunlik qiynayotgan o'g'liga qanday qilib bo'lsa ham yordam bermoqchi bo'ladi. Kimdandir eshitgan "araq ichsa, yaxshi uxlaydi", degan fikr uning ongiga o'rnashib qolganligi va asosiysi urushning asorati sababli shunday yo'l tutadi. Ona uchun o'g'li tinch yashasa, dard, azob chekmasa, bas. Demak, tashqi omil ta'siri ona xarakterini tasvirlashda ko'zga tashlanadi. O'g'il xarakteridagi milliy xususiyatlar esa onasining bu harakatini qabul qilolmaydi. O'zbek oilalarida o'g'illar ota-onasi oldida spirtli ichimlik ichishni juda katta hurmatsizlik deb biladi.

Mazkur hikoyaning jang jarayoni tasvirida ham o'zbek milliy xarakteriga zid tasvir orqali qahramon sinovdan o'tkaziladi. Askarga afg'on qabristoni panasida joylashgan

dushmani yengish uchun tank bilan bostirib kirish buyuriladi. Askarning dunyoqarashida mozorga nisbatan shakllangan muqaddas qadriyatlar mavjudligi sababli buyruqni bajarmaydi. Xalqimizda mozorlarni muqaddas deb bilish tushunchasi qat'iy shakllangan. Mazkur hikoya qahramoni bo'lgan o'zbek onasi o'zi istamasa-da, farzandidagi g'am-anduhni biroz bo'lsa-da aritish uchun unga aroq ichishni tavsiya qilyapti, o'g'il esa onasidan bu gapni eshitib "hayratda qotib qolishi" qahramon psixofiziologiyasi bo'lib unda onaning nega o'z o'g'liga aroq ichishni tavsiya qilayotgani o'g'ilni ham dahshatli iztirobga soladi. Onaning "ozgina ichgin, bolam! O-zzgina!.." deya nola qilishida undov, harf takrori va tinish belgi orqali qahramonning tashqi qiyofasidagi o'zgarishni ko'z oldimizga keltirishimiz mumkin bo'ladi. Ushbu psixofiziologik holatda urush ta'siridan onava bolaning bir azobini his qilamiz. Urush davrida millatimiz mislsiz kunlarni boshidan o'tkazgan bo'lsa-da, o'zbek ekanligini, farzandlariga har qanday vaziyatda ham mehribon ona ekanligini bir lahza bo'lsa-da, unutmadi. Milliy urf-odatlarimizga munosib bo'lib qahramonliklar ko'rsatdi. Urush hukm surayotgan bir paytda, hatto och qolib, odamlar ovqatga tashna bo'layotgan bo'lsa ham oldiga ovqat kelsa, oldin qo'lni yuvish kerakligini unutmagan, millatidan, otabobolaridan olgan tarbiyaga xiyonat qilmagan o'zbek jangchilarining qahramonliklari tengsiz edi. Biz tahlil etayotgan asarlarda inson har qanday vaziyatda ham insoniyligini saqlab qolishi kerakligi sevimli yozuvchimiz tomonidan mahorat bilan tasvirlangan.

Umuman, yozuvchi urush mavzusidagi asarlarni shunchaki yozmaydi. Uning har bir satrini qalamga olganida, urushdagi voqealar qayta jonlanadi. Nabi Jaloliddin va Qo'chqor Norqobilning urush mavzusidagi asarlari avtobiografik xarakterga ega. Chunki "Asar yozuvchidan unib chiqadi. Farzandiday unda tug'iladi, ulg'ayadi, kamol topadi. U farzandini avaylaydi, himoya qiladi. Asar-yozuvchining taqdiri, kerak bo'lganda, yozuvchi qurbon bo'lishga tayyor. Uning bu g'ayritabiiy sadoqati, yozmasdan turolmasligi, ruhiyatga, falsafaga, mushohadaga moyilligi, shaxsi, fe'li, uslubi, qarashlari, dardi, qiyalishlari hech kimni qiziqitirmaydi. Yozuvchi o'z shaxsi va o'zgalarning shaxsi bilan birikib ketgan, asar uning subyekti"[3]. Bunday asarlarni yozish yozuvchidan katta mahorat talab qiladi. Qo'chqor Norqobil asar yozishga kirishishdagi ichki kechinmalarini yashirmaydi.

"Bugun shoir Eshqobil Shukur bilan inson va adabiyot haqida gaplashdik. U she'ro'qidi. Men hech narsa yoza olmayapman, dedim. Buni shoir ruhiyatga yo'ydi. Ba'zan odamda shunday hol kecharkan. Oylab bir misra ham bitolmay yurasiz, dedi. Men nega bunday ahvolga tushganimni bilmadim, biroq ko'nglim xijil, umuman, qayerlargadir bosh olib ketishni istayman, qayerga, o'zim ham tushunolmayman, dedim. Nimanidir tasirida qolgansiz, xayolingizni chalg'itmang, dedi shoir. Men urushda ko'rgan voqealarni tez-tez eslaydigan bo'lib qolganman, ochig'i, jangohlarni qo'msayapman, odam o'ziga munchalik musibatlar keltirgan kunlarga qaytishni xohlab qolishi mumkinmi, deb so'radim. U menga angrayib qaradi, so'ngra nigohini olib qochdi. Aytdiki, fojialar o'tib ketgandan keyin, bir kuni ardoqli xotiraga aylanishi ham mumkin. Men og'riqdan lazzatlanish azob, inson uchun bundan ortiq ko'rgulik bo'lmasa kerak. URUSH baribir bashariyat ustidan g'alaba qilishiga imon keltiryapman dedim. Eshqobil

Shukur eshitmaganga oldi"[4]. Urush haqida yozishning o'zi oson bo'lmaydi, ammo yozmay qo'yish ham insonga tinchlik bermaydi. Yozuvchi yuqoridagi iqrorlari o'laroq, urush asarlarini yozishga kirishadi. U o'z ko'zi bilan ko'rgan voqealarni boshqalarning ko'zi, yuragi, ko'ngliga singdirib yuborish, hech bo'lmasa, o'zing his qilgan og'riqning yarmini anglashlari uchun jonini qiynab, bu mavzuni qayta boshidan o'tkazadi.

Ijodkorning real voqelikdan uzoqlashib ketolmasligi tabiiy, albatta. Bu o'rinda hayotiy masalalarning badiiy muammo sifatida yuzaga chiqishi ahamiyatlidir. "Badiiy muammo muallifning olam va odam borasidagi konseptual qarashlari hamda tasvirga olingan mavzuning muayyan nuqtayi nazar orqali idrok etilishini anglatadigan tushunchadir"[5]. Shuni hisobga olib aytish mumkinki, Nabi Jaloliddin real voqelikda tug'ilgan jamiyat to'g'risidagi qarashlarini hikoyalariga badiiy muammo sifatida kiritgan.

XULOSA

Urush haqidagi asarlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bunday badiiy matnlar faqat tarixiy voqelikni tasvirlash bilan cheklanmaydi, balki muallifning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari va hayotga bo'lgan qarashlarini chuqur ifodalovchi estetik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Ijodkor urushni tasvirlar ekan, undagi fojeaviylik, insoniy iztiroblar, yo'qotishlar va umid kabi qarama-qarshi holatlarni o'z ruhiyati prizmasi orqali talqin qiladi.

Xulosa qilib aytganda, urush haqidagi asarlar ijodkor shaxsiyatini anglashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ular orqali muallifning dunyoqarashi, ruhiy holati va insoniyat taqdiriga bo'lgan munosabati badiiy shaklda ifodalanadi. Shu bois mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar adabiyotshunoslik va filologiya fanlari uchun dolzarb ilmiy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Қуроноф Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Тошкент: Шарқнашриёти, 2004. – Б.187.
2. Наби Жалолиддин. Сени яхши кўраман, ҳаёт / О'zAS.2017, В .14.
3. Асқад Мухтор. Уйқу қочганда (Тундаликлар). –Тошкент: Маънавият, 1997. – Б.31.
4. Norqobil Q. Bosinqirash/ Quyoshni kim uyg'otdi?:qissalar, hikoyalar. –Тошкент: Sharq: HMAK, 2007. –В.294
5. Йўлдош Қозоқбой, Йўлдош Муҳайё. Бадий таҳлил асослари. – Тошкент: Камалак, 2016. – Б. 99.
6. Парпиева, М. М. (2018). Информационно-коммуникационные технологии в процессе обучения русскому языку как неродному. Вопросы науки и образования, (7 (19)), 151-152.
7. Мадумарова, М. Д., & Мадумаров, Р. А. (2022). Современная Технология Проблемного Обучения. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(6), 431-433.

8. Исроилова, С. (2023). ФОРМИРОВАНИЕ ЛИДЕРСКИХ КАЧЕСТВ У СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ. Farg'ona davlat universiteti, (1), 229-229.
9. Исроилов, М. И., & Исроилова, С. М. (2022). Ҳуқуқий Маданият Йўлида. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(Special Issue 2), 82-87.
10. Abdurahimova, M. (2025). SUKUT PSIXOFIZIOLOGIYASI. Farg'ona davlat universiteti, (1), 72-72.
11. Qayumov, A., & Abdurahimova, M. (2024). QO 'CHQOR NORQOBIL QISSALARIDA PSIXOLOGIK TASVIR VA PSIXOFIZIOLOGIK HOLAT MASALASI. Farg'ona davlat universiteti, (3), 529-529.
12. Тургунбаев, Т. А., & Каримов, Ў. У. (2020). Ҳамма Нарса-Фронт Учун, Ҳамма Нарса-Ғалаба Учун!(Иккинчи Жаҳон Урушида Қозонилган Ғалабанинг 75 Йиллигига Бағишланади). Интернаука, (19-4), 52-53.